



UDK: 636.084.033

**BROYLER JO‘JALARINI TEXNOLOGIK
PARVARISH QILISH USULLARI**

J.Kdirbayeva

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti*

A.E.Yangiboyev

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d, dotsent*

I.R.Xolbo‘tayev

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi*

Broyler jo‘jalarini texnologik parvarish qilish usullari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqolpog‘iston Respublikasi hududida parvarishlanadigan broyler krosslari ularni parvarish qilish, zarur bo‘lgan uskunalar bilan ta’minlash yo‘llari, suv ichish va oziqlantirish frontlari, xona haroratining me’yoriy ko‘rsatgichlari, nisbiy namligi, yoritilishi, ventilyatsiya, bug’lantirish orqali sovutish tizimi, joylashtirish zichligi, tirik vazn nazorati, bruderli texnologiyasi asosida parvarishlash va ularni tez fursatda o’stirish to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: bruder, Kobb-500, Ross-308, ozuqa, jig‘ildon, go‘sht, mahsuldorlik, namlik, bosim, suv, energiya, mikroiqlim.

**Методы технологического ухода за цыплятами-бройлерами.
АННОТАЦИЯ**

В данной статье бройлерные кроссы, содержащиеся на территории Республики Каракалпакстан, способы обеспечения их необходимым оборудованием, фронты поения и кормления водой, нормативные показатели комнатной температуры, относительной влажности, освещения, вентиляции, пара. Предусмотрена система охлаждения, плотность посадки, контроль живой массы, брудерная технология ухода и быстрое разведение.

Ключевые слова: брудер, Кобб-500, Росс-308, корм, долгоносик, мясо, продуктивность, влажность, давление, вода, энергия, микроклимат.



Methods of technological maintenance of broiler chicks

ANNOTATION

This article provides information on the care of broiler crosses kept in the Republic of Karakalpakstan, ways to provide them with the necessary equipment, drinking and feeding fronts, standard room temperature, relative humidity, lighting, ventilation, evaporative cooling system, stocking density, live weight control, care based on brooder technology, and their rapid growth.

Keywords: brooder, Cobb-500, Ross-308, feed, chickpeas, meat, productivity, humidity, pressure, water, energy, microclimate.

KIRISH

Respublikamizda go'sht yo'nalishidagi parrandachilik sanoatida tovuqning go'shtdor etakchi krosslaridan — Ross (Angliya), Xabbard (Frantsiya), Kobb, Arbor aykres (AQSh) broyler krosslaridan keng foydalanilmoqda. Ular bir-birlaridan jadal o'sishi bilan farqlanadilar. Bunday chatishgan jo'jalarning tirik vazni 38—42 kunlik yoshida 2,4—2,7 kg ga etadi. Bu yoshda so'yilgan broyler-jo'jalar yoqimli parhez go'sht bergani tufayli, aholi uni katta talab bilan iste'mol qiladi. Ular to'yimliligi jihatidan o'rdak hamda g'oz go'shtidan yuqori turadi, chunki ularda to'yimli proteinlar miqdori ko'proq, yog' esa kamroqdir.

Jahon chorvachilik sohasining rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, chorvachilikda go'sht ishlab chiqarish bo'yicha boshqa hayvonlar turiga qaraganda parranda go'shtini ishlab chiqarish jadallik bilan rivojlanmoqda. Broyler jo'jalarini jadal o'sishi va sarflangan ozuqalarga nisbatan yuqori sifatlari arzon go'sht etishtirish, qisqa vaqt ichida qilingan xarajatlarning qoplanishi hamda aholining parhez parranda go'shtiga bo'lган talabining oshishi sababli broyler yo'nalishidagi parrandachilikka qiziqish tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy broyler ishlab chiqarish texnologiyasi bir-biri bilan bog'liq bo'lган ish tizimi, ya'ni broyler jo'jalarning ota-onalarini o'stirish va boqish, inkubatsion tuxumlarni ishlab chiqarish, qisqa davr ichida (38—42 kun) broyler jo'jalarini go'shtga etishtirishdan iboratdir.



Ross-308 krossi



Kobb-500 krossi

Asosiy izlanishlar: Hozirgi kunda go'sht yo'nalishidagi broyler jo'jalar go'shtiga iste'molchilar talabining salmog'i ko'payib, bir qancha broyler go'shti yetishtiruvchi tadbirkorlik xo'jaliklari soni ortib borayotgan bo'lsa-da, Ross-308 krossli broyler jo'jalarini o'sish va rivojlanish, mahsuldorlik sifatlarini yaxshilash hamda boquv davrini imkon qadar qisqartirish asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun O'zbekiston olimlaridan S.Azimov, D.Azimov, A.Alimov, M.A.Ismoilov, A.Tursunov, G'.Jumaniyozov, G.B.Ibodullayeva, Sh.Doniyorov va boshqalar tomonidan go'sht yo'nalishidagi parrandalarni parvarishlash, o'sish va rivojlanish ko'rsatgichlarini oshirish usullarini o'rganishda turli parvarishlash va oziqlantirish usullaridan foydalanish mumkinligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishgan.

Xo'jalikda broyler jo'jalarini texnologik ishlab chiqarish quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olgan holda tashkil qilinadi:

Samarali texnologik inkubatsiya qilish, saqlash va transportda tashish usullarini qo'llab, yuqori mahsuldor, sifatlari duragay jo'jalarni o'stirishni optimal variantini tanlash;

Yosh broyler jo'jalarga erta o'sish sharoitlarini yaratish, jo'jalarni parrandaxonaga keltirilgandan boshlab suv va ozuqaga bemalol etishish imkonini yaratish, shu bilan birga 4 - 5-kunlari qo'shimcha qo'yilgan suvdon va emdonlardan avtomatlashgan suvdon va emdonlarga bezarar o'tishni tashkillashtirish;



Jo‘jalarni biologik, ya’ni o‘z tarkibida me’yorga asosan ozuqa moddalari, mineral komponentlar va mikroelementlari mavjud bo‘lgan premiks bilan boyitilgan, to‘yimli va yuqori sifatli omuxta em bilan oziqlantirish;

Parrandalarni yopiq binoda va optimal mikroklimati (havo harorati, nisbiy namligi va almashinuvi), yoshidan kelib chiqib mavjud yoritish ratsional tizimi va fiziologik holatlarini inobatga olgan holda parrandaxonalarda o‘sirish, boqish va etishtirish;

Jo‘jalarni suv va ozuqani aktiv iste’mol qilishini, jig’ildon(zob)i to‘lganligini nazorat qilib borish, boqilish samarasini bilish uchun 7- kuni tirik vaznini tortish;

Jo‘jalarni butun o‘sish davrida havo haroratini ma’qul bo‘lgan rejimda ushslash. Tez o‘suvchi broyler jo‘jalari o‘zidan ayniqsa ishlab chiqarish davrining ikkinchi qismida, katta miqdorda metabolik issiqlik chiqaradi. Jo‘jani 21 kunligidan boshlab atrof muxit haroratini 21⁰S dan past ushslash, broylerlar vaznini optimal o‘sishiga imkon yaratadi.

Yuqumli va yuqumsiz parranda kasalliklariga qarshi samarali veterinariya-profilaktik chora-tadbirlarini qo‘llash (binoni sanatsiya qilish, bir vaqtning o‘zida bir hil yoshdagи parrandalar bilan binoni to‘ldirish, o‘z vaqtida immunizatsiya qilish va boshqalar).

Broylerlarni qafaslarda saqlash va boqish uchun BKM-3B texnologik uskunalar va 3 yarusli KP-8 batareyalarini ishlatish mumkin. Broylerlarni kataklarda saqlashning afzalliklari shundan iboratki, bir xil hajmdagi maydonda er(pol)da boqilganga nisbatan 1,5 barobar bosh sonini ko‘p ushslash mumkin, mos ravishda bosh soni hisobiga parranda go‘shtini ham ko‘p olish mumkin. Lekin shu bilan birga er(pol)da boqilganiga qaraganda qafasda boqilgan broylerlar bir boshiga nisbatan kamroq tirik vazn olinishi va olingan 1 kg tirik vazn uchun ko‘proq sarf-xarajat qilinishi aniqlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, broylerlarni erda boqish uskunalari kataklarda boqish uskunalariga nisbatan 2 barobar arzon tushadi. Broylerlarni erda boqiladigan uskunalari xarajatlarini qoplash uchun 2—2,5 yil vaqt talab etiladi, kataklarda boqiladigan broylerlar uskunalari xarajatlarini qoplash uchun 3—4 yil vaqt talab etiladi.



7 - 14 kunlik broyler jo‘jalari

Qalin to‘shamada broylerlarni etishtirish texnologiyasi eng muhim va har tomonlama mukammal o‘zlashtirilgan texnologiya hisoblanadi.

Boqilayotgan broyler jo‘jalarining tagiga qalin to‘sama uchun mog’orlamagan, toza yog’och qipig’i, maydalangan poxollar 8—10 sm qalilikda ishlatiladi. To‘sama harorati pol bilan bir xil bo‘lishi (2830°S) kerak. Agar to‘sama bir tekisda yotqizilmagan bo‘lsa, suv va ozuqaga bir tekis etolmaganligi tufayli broyler jo‘jalari galasining bir xil o‘sishi kuzatilmaydi. Broyler jo‘jalarini boqish zichligi 1 m^2 ga 12—14 boshni tashkil etadi, shunda 1 kv. m. boqish maydonchasida tirik vaznda 32—36 kg parranda go‘shti etishtiriladi.

Jo‘jalar birinchi 12 - 14 kunlik yoshigacha tana haroratini boshqara olmaydi. Eng qulay tana haroratini havo haroratini tartibga solish orqali yaratish mumkin. Pol harorati havo haroratiga o‘xshab juda zarur ko‘rsatkich, shuning uchun parrandaxonani oldindan isitish juda muxim hisoblanadi. Parrandaxona harorati va nisbiy namligini jo‘jalarni keltirishdan issiq mavsumda 24 soat, sovuq mavsumda 48 soat oldin stabillashtirish kerak bo‘ladi.

Tavsiya etiladigan ko‘rsatkichlar:

- Havo harorati 30°S (ozuqa va suvning oldida jo‘ja elka balandligida o‘lchanadi);
- To‘sama harorati $28 - 30^{\circ}\text{S}$;
- Havo nisbiy namligi 60 - 70%.

Keltirilgan ko‘rsatkichlarni hamma bruder maydonchasida doimiy ravishda nazorat qilib borish kerak bo‘ladi, buning eng yaxshi indikatori bo‘lib jo‘jalarni xulqi hisoblanadi.

Jo‘jalarni keltirishdan oldin yana bir bor suv va ozuqlar etarli bo‘lishini va parrandaxona bo‘yicha bir tekisda tarqatilganligini nazoratdan o‘tkazish kerak.



Hamma jo‘jalar keltirilgandan keyin zudlik bilan ozuqa va suvga etishish imkonи bo‘lishi kerak.

Jo‘jalar karton qutilarda qancha ko‘p vaqt qolsalar, ular organizmining suvsizlanish potentsiali shuncha kuchayadi. Bu erta chiqim bo‘lishiga va 7 kunlik yoshida hamda yoshining final qismida tirik vazn o‘sishining pasayishiga olib keladi.

Jo‘jalarni karton qutilardan bruder tagidagi qog’ozlar ustiga extiyotkorlik bilan tez va bir tekisda qo‘yiladi. Bo‘sh karton qutilar darxol olib tashlanadi.

Jo‘jalarga tinchlanish va yangi sharoitga ko‘nikish uchun 1 - 2 soat vaqt beriladi. Shundan so‘ng hamma jo‘jalarda suv va ozuqaga etishish imkonи mavjudligini nazorat qilib chiqiladi. Asbob - uskunalarni ishlashini va havo haroratini nazorat qilib chiqish kerak bo‘ladi.

Birinchi 7 kun jo‘jalarga yangi sharoitga o‘rganish va oziqlanish va suv ichish jarayonini stimulyatsiya qilish uchun kuniga 23 soat davomida 30 - 40 lyuks intensivlikdagi yorug’lik beriladi.

Galaga toza ichimlik suvi berish va jo‘jalarga qulay bo‘lgan optimal balandlikdagi suvdonlarda suvga oson etishish imkoniyati yaratilib berilishi kerak. Nippelli liniyalarni 12 bosh parrandaga 1 nippel hisobidan, qo‘ng’iroq shaklidagi suvdonlarni 1000 bosh parrandaga 6 ta suvdon hisobidan o‘rnatish tavsiya etiladi. Bundan tashqari 1000 bosh parrandaga 6 ta qo‘srimcha mini-suvdon(avtosuvdon) lar qo‘yiladi.

Boshida jo‘jalarga mini-granula ozuqani 100 bosh jo‘jaga 1 dona hisobidan em - poddon yoki tuxum fleykasida beriladi, hamda qog’ozlarga ozuqa shunday solinadiki band bo‘lgan maydon 25 foizdan kam bo‘lmasligi kerak. Jo‘jalarni to‘g’ri qog’oz ustiga qo‘yiladi. Avtomatik tizimdagи emdon va suvdonlar qog’ozga yaqin joylashgan bo‘lishi kerak.

Bir boshga oziqlantirish fronti 5 sm va suv ichish fronti 1 sm ni tashkil etadi.

Eng muxim omillar:

- *Jo‘jalarga toza, biobezarar sharoitlaryaratib berish;*
 - *Bir xil yoshdagи galalar (hammasi bo‘sh - hammasi to‘la) printsipini qo‘llash orqali kasalliklar tarqalishini nazorat qilib borish;*
 - *To ‘shamalarni polga bir tekis qilib soldirish;*
 - *Parrandaxonalarни oldindan isitish hamda havo harorati va nisbiy namliginijo ‘jalarni keltirguncha stabilizatsiya qilish;*
 - *Parrandaxonaga jo‘jalarni tezlik bilan joylashtirish;*
 - *Jo‘jalarga zudlik bilan suv va ozuqa berish;*



- *Jo 'jalarni suv va ozuqaga oson etishishi uchun uskunalarni qulay qilib joylashtirish;*
- *Tizimli emdon va suvdonlar yoniga yana qo 'shimcha suvdon va emdonlar qo 'yish;*
- *Jo 'jalarni tinchlanishi uchun, suv va emdonlarga oson etishadigan qilib 1 - 2 soatga xoli qoldirish;*
- *Ozuqa, suv, havo harorati va nisbiy namligini 1 yoki 2 soatdan keyin tekshirib chiqish, kerak bo 'lgan joylarda sozlash.*

Parvarishlash jarayoni boshlanish davriga baho berish

Jo'jalar ozuqaga birinchi etishishganda, o'zida ochlikni xis qiladi, natijada yaxshilab oziqlanadi va jig'ildoni(zob)ni to'ldiradi. Jo'jalar suv va ozuqani topganligiga amin bo'lish uchun 8 va 24 soat o'tgandan keyin tekshiriladi. Buning uchun parrandaxonani 3 - 4 joyidan 30 - 40 bosh jo'jalar ushlanadi. Keyin har bir jo'jani jig'ildonini barmoq bilan asta paypaslab tekshiriladi. Agar jo'ja suv va ozuqani topgan bo'lsa jig'ildoni to'la, yumshoq va aylana shaklida bo'ladi. Agar jig'ildoni to'la bo'lsa, lekin paypaslab ko'rilmaga ozuqa shakli (teksturasi) sezilsa, unda jo'ja etarli miqdorda suv ichmagan bo'ladi. Jo'ja jig'ildonini to'ldirish me'yori 8 soatdan keyin 80 foizni, 24 soatdan keyin 95 - 100 foizni tashkil etishi kerak.

Parvarishlash sharoitlarini nazorati

Parranda galasi sog'ligi va ishtaxasi rivojlanishi uchun asosiy zarur elementlardan eng maqbul havo harorati va nisbiy namlik hisoblanadi. Havo haroratini va nisbiy namlikni doimo va tez - tez nazorat qilib turish kerak bo'ladi: birinchi 5 kun minimum bir kunda 2 marta va undan keyin har kuni. Havo harorati va nisbiy namlikni o'lchash va mikroiqlimni avtomatik tarzda nazorat qilish tizimi datchiklari jo'jalar balandligida o'rnatiladi. Bundan tashqari elektron nazorat datchiklarni to'g'ri ishlayotganligini nazorat qilib qilib turish uchun yana oddiy termometrlar ham o'rnatiladi.

Jo'jalarni parvarishlash jarayonida binoni havosini elvizaksiz almashtirib, tozalab turish uchun yana quyidagilar kerak bo'ladi:

- Havo harorati va nisbiy namlikni kerakli darajada ushlab turish;
- Parrandaxonada is(bo'g'uvchi) gaz (moyG'gazli isitkichlarni parrandaxonaga o'rnatish natijasida paydo bo'ladi), karbonat angidrid gazi va amiyaklarni havo almashtirishni ta'minlash (ventilyatsiya) tizimi orqali paydo bo'lishi oldi olinadi;

Jo'jalarni parrandaxonaga joylashtirilgandan boshlab ventilyatsiyani minimal ishlatish orqali tez - tez va muntazam interval vaqtda toza(sof) havo berib borishni



tashkil etish tavsya etiladi. Sifatli havo va haroratni jo‘jalar balandligida bir me’yorda ta’minlab turish uchun ichki ventillyatorlardan foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. A.Yangiboyev, I.Xolbo‘tayev, N.Sattorov. Utilization of nitrogen and mineral substances by the organism in the care of ross-308 broiler chicks with the help. International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada <https://econferencezone.org> 21 st August – 2024 9-16 bet
2. A.Yangiboyev, I.Xolbo‘tayev, N.Sattorov. Tetrabiotik yordamida broyler jo‘jalarini parvarishlashda ozuqa moddalari va energiyaning organizm tomonidan o‘zlashtirilishi. International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia <https://econferencezone.org> July - 23rd 2024 10-17 bet
3. A.Yangiboyev, I.Xolbo‘tayev, A.Narimov. Tuxum yo‘nalishidagi jo‘jalarni Quruq sut ozuqa qo‘sishchasi yordamida parvarishlashda Aniqlash tajribasini o‘tkazish natijalari Open Academia: Journal of Scholarly Research Volume 1, Issue 8, August, 2024 ISSN (E): 2810-6377 Website: <https://academiaone.org/index.php/4> 1-5 bet
4. I.R.Xolbo‘tayev - Broiler jo‘jalarining tirik vazn dinamikasi, o’sish intensivligi va yashovchanligiga Tetrabiotik probiotigining ta’siri. Chorvachilik va naslchilik ishi ISSN-2181-9459 Ilmiy-amaliy jurnal №4 2024 yil 18-21 bet
5. I.R.Xolbo‘tayev Effect of tetrabiotic probiotic on quantitative and qualitative indicators of broiler chicken meat. Neo science peer reviewed journal volume 24, august - 2024 ISSN (e): 2949-7701 www.neojourналs.com 1-6 papers